

Toshkent viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Toshkent viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 6177,7 mlrd so'mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5840,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 272,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 64,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Toshkent viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida

2025- yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (538,0 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (497,5 mlrd so'm) va Zangiota (517,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (9,1 mlrd so'm), Ohangaron (15,9 mlrd so'm) va Nurafshon (11,1 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Toshkent viloyati	6177,7	103,8
Nurafshon shahar	11,1	102,5
Olmaliq shahar	23,3	102,0
Angren shahar	73,6	102,5
Bekobod shahar	59,7	104,3
Ohangaron shahar	15,8	102,4
Chirchiq shahar	46,1	101,4
Yangiyo'l shahar	9,1	101,0
Oqqo'rg'on tumani	348,7	101,0
Ohangaron tumani	316,7	104,7
Bekobod tumani	434,7	100,3
Bo'stonliq tumani	447,5	105,3
Bo'ka tumani	373,8	102,1
Quyi Chirchiq tumani	307,9	104,4
Zangiota tumani	517,3	104,0
Yuqori Chirchiq tumani	372,1	111,6
Qibray tumani	440,3	105,6
Parkent tumani	328,3	103,7
Piskent tumani	266,3	85,9
O'rta Chirchiq tumani	497,5	103,2
Chinoz tumani	418,2	104,2
Yangiyo'l tumani	538,0	112,3
Toshkent tumani	331,7	104,2

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (112,3 %), Yuqori Chirchiq (111,6 %), Qibray (105,6 %) va Quyi Chirchiq (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Piskent tumani (28,9 %), Bekobod tumani (100,3 %) va Yangiyo'l shahrida (101,0 %) o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025- yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5720,4 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 475,9 mlrd so'mni (103,0 %), chorvachilik mahsulotlari 5244,5 mlrd so'mni (103,7 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Zangiota (500,1 mlrd so'm), Yangiyo'l (475,9 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (456,8 mlrd so'm) va Bo'stonliq (422,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (8,9 mlrd so'm), Nurafshon (11,0 mlrd so'm) va Ohangaron (15,9 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Zangiota (104,4 %), Yangiyo'l (112,3 %), Yuqori Chirchiq (110,7 %) va Qibray (105,0 %) tumanlarida qayd etildi. Piskent (85,2 %), Bekobod (100,1 %) va Oqqo'rg'on (100,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,7 % i fermer xo'jaliklariga, 13,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (431,7 mlrd so'm), Zangiota (431,3 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (430,9 mlrd so'm), Bo'stonliq (415,4 mlrd so'm) va Qibray (391,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (8,9 mlrd so'm), Nurafshon (11,0 mlrd so'm) va Ohangaron (15,9 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (113,0 %), Yuqori Chirchiq (110,7 %) tumanlari, Yangiyo'l (108,4 %), Angren (106,3 %) shaharlarida qayd etildi. Piskent (83,4 %), Bekobod (99,6 %), Oqqo'rg'on (100,2 %) va Bo'ka (101,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 76,9 ming tonna go'sht, 170,7 ming tonna sut, 269,1 mln dona tuxum va 2,5 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, sog'ib olingan sut – 101,0 % ni, olingan tuxum – 107,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 101,3 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 1,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 79,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 6,1 foizi fermer xo'jaliklari, 88,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 5,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2025- y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	76,9	104,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,0	124,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	60,8	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15,1	122,8
Sut, ming tonna	170,7	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,3	100,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	151,7	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,7	90,9
Tuxum, mln dona	269,1	107,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,5	170,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	122,1	90,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	146,5	128,0
Jun, tonna	-	-
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-
Baliq, ming tonna	2,5	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,2	135,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,03	103,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,3	98,7

Shu bilan birga, olingan tuxumning 0,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 45,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 54,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 9,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 1,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 89,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Toshkent viloyati	76 931	170 665	269 132
Nurafshon shahar	191,5	5,5	660
Olmalik shahar	410,8	0,4	431,6
Angren shahar	962,6	32,2	768,3
Bekobod shahar	1 089,8	0,0	140,2
Ohangaron shahar	267,7	7,7	1 497,4
Chirchiq shahar	828,2	0,0	946,0
Yangiyo'l shahar	119,5	353,3	131,1
Oqqo'rg'on tumani	4 650,5	8 741,3	1 693,1
Ohangaron tumani	3 851,5	9 785,5	17 281,9
Bekobod tumani	5 242,6	14 487,5	10 114,3
Bo'stonliq tumani	5 558,1	19 790,7	7 851,7
Bo'ka tumani	4 953,0	4 149,4	5 484,7
Quyi Chirchiq tumani	3 402,0	10 814,4	11 687,7
Zangiota tumani	6 418,1	10 625,6	30 771,3
Yuqori Chirchiq tumani	4 702,9	14 624,1	28 363,2
Qibray tumani	5 146,8	11 479,8	50 977,2
Parkent tumani	3 501,3	13 654,9	9 655,6
Piskent tumani	2 555,4	11 174,8	8 096,3
O'rta Chirchiq tumani	6 996,9	9 172,8	27 139,3
Chinoz tumani	4 607,0	11 711,1	19 782,2
Yangiyo'l tumani	7857,8	13 248,4	23 195,8
Toshkent tumani	3 617,0	6 805,6	12 463,1

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Toshkent (77,5 mlrd so'm), Zangiota (68,8 mlrd so'm), Chinoz (56,3 mlrd so'm), Yangiyo'l (44,2 mlrd so'm) va Bo'ka (38,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha nisbatankam hajm Nurafshon (0,05 mlrd so'm), Ohangaron (0,08 mlrd so'm) va Bekobod (0,1 mlrd so'm) shaharlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq shahar (2,0 barobar oshdi), Ohangaron (105,2 %), Yuqori Chirchiq (111,2 %), Oqqo'rg'on (110,8 %) va Bo'ka (109,3 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiyo'l (22,1 %), Angren (68,3 %), Chirchiq (77,3 %) shaharlari va O'rta Chirchiq (76,7 %) tumanida esa o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da
Toshkent viloyati	13 450	102,2
Nurafshon shahar	0,0	0,0
Olmaliq shahar	9,2	0,0
Angren shahar	47,9	31,9
Bekobod shahar	0,0	0,0
Ohangaron shahar	2,2	115,8
Chirchiq shahar	0,0	0,0
Yangiyo'l shahar	3,0	12,7
Oqqo'rg'on tumani	162,5	172,0
Ohangaron tumani	334,3	150,7
Bekobod tumani	197,4	152,6
Bo'stonliq tumani	1,0	142,9
Bo'ka tumani	1 034,7	113,2
Quyi Chirchiq tumani	35,8	191,4
Zangiota tumani	3 015,8	103,7
Yuqori Chirchiq tumani	77,8	2,0 m.
Qibray tumani	1 205,6	109,1
Parkent tumani	18,0	102,9
Piskent tumani	98,5	110,4
O'rta Chirchiq tumani	502,9	49,3
Chinoz tumani	2 328,4	104,4
Yangiyo'l tumani	1 462,8	106,7
Toshkent tumani	2 912,2	102,7

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Zangiota (22,4 %), Toshkent (21,7 %), Chinoz (17,3 %), Yangiyo'l (10,9 %), Qibray (9,0 %) va Bo'ka (7,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,02 %), Yangiyo'l (0,02 %) shaharlari va Bo'stonliq (0,01 %) tumanida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yuqori Chirchiq (2,0 m.), Quyi Chirchiq (191,4 %), Oqqo'rg'on (172,9 %), Bekobod (152,6 %), Ohangaron (150,7 %), Bo'stonliq (142,9 %), Bo'ka (113,2 %) tumanlari, Ohangaron (115,8 %) shahrida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 990,8 ming boshga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga ko'p), sigirlar - 401,8 ming boshga (1,0 % ga ko'p), qo'y va echkilar - 1065,3 ming boshga (1,0 % ga ko'p), parrandalar - 17139,6 ming boshga (1,0 % ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	990,8	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	83,8	102,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	851,2	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	55,8	112,1
shundan sigirlar	401,8	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,8	102,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	363,6	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,4	90,0
Qo'y va echkilar	1065,3	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	310,5	100,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	679,5	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	75,3	110,7
Otlar	54,9	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,3	105,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	41,6	99,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,0	94,9
Parrandalar	17139,6	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	129,3	63,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	9466,5	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7543,8	106,2

2025- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 90,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 29,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 63,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 0,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 55,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 44,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1- aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Toshkent viloyati	990766	1065342	17139551
Nurafshon shahar	4149	2063	17165
Olmalik shahar	4820	8503	19252
Angren shahar	13793	20215	30533
Bekobod shahar	5301	10660	35047
Ohangaron shahar	5936	2836	27253
Chirchiq shahar	1370	7159	51570
Yangiyo'l shahar	1824	1029	11134
Oqqo'rg'on tumani	69703	39366	313736
Ohangaron tumani	79951	265322	769546
Bekobod tumani	86109	41276	459835
Bo'stonliq tumani	90540	162764	2418404
Bo'ka tumani	82195	61332	566775
Quyi Chirchiq tumani	47723	13772	623626
Zangiota tumani	46336	20356	2860835
Yuqori Chirchiq tumani	63978	36884	1853698
Qibray tumani	39645	26982	1702213
Parkent tumani	57788	108878	432149
Piskent tumani	64827	78702	743852
O'rta Chirchiq tumani	51891	55524	1474856
Chinoz tumani	66224	35309	680418
Yangiyo'l tumani	74718	50678	1094746
Toshkent tumani	31945	15732	952908

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Jabborov
71 203-45-00 (4610)

Manzil:
Toshkent sh, Yangi Qo'yliq
ko'chasi, 2-uy
